



O'ZBEK TILIDA HARAKAT TARZI SHAKLLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATI VA TADQIQI

Eshmirzayev Bahodir Djo'rarevich - DTPI o'qituvchi
E-mail: eshmirzayevbahodir@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida harakat tarsi shakllarining funksional-semantik maydon nazariyasi bilan bog'liq qarashlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *tarz, harakat tarzi, funksional-semantik maydon, morfologik, fe'l, ko'makchi.*

Abstract: This article discusses the views related to the theory of the functional-semantic field of verb forms in the Uzbek language.

Key words: *mode of action, style, functional-semantic field, morphological, verb, auxiliary.*

Harakat tarzi paradigmasi murakkab morfologik shakllar sistemasi sifatida turkiy tillar so'z o'zgarishi tizimida alohida o'rin tutadi. O'zbek tilida harakat tarzi shakllari xalqimizga xos milliy mental xususiyatlarni ifodalash xususiyati bilan ham xarakterlidir. Bunda harakat tarzi shakllarining qanday strukturaga egaligi, shakllarning murakkablik darajasi, ya'ni shakllar zanjiri, shu bilan birga, pragmatik vaziyat bilan bog'liq voqelanadigan xususiyatlari muhim rol o'ynaydi.

Avvalo, harakat tarzi shakllarining strukturasi, ya'ni ko'makchi va yetakchi fe'lni bog'lovchi vositaning ahamiyati haqida fikr yuritmoq lozim bo'ladi.

O'zbek tilida yetakchi va ko'makchi fe'l nutq xususiyati, ifodalanadigan ma'noning tabiatni, fe'llarning substansial xarakteri va semantik mohiyati hamda so'zlovchining kommunikativ intensiyasidan kelib chiqqan holda o'zaro uch xil shaklda birikishi ma'lum:

- 1) -(i)b shakli vositasida: *aytib berdi, kelib qoldi;*
- 2) -a/y shakli orqali: *kela boshladi, o'qiy qol;*
- 3) bevosita: *aytib qo'ydim – aytdim-qo'ydim, ketib qoldi – ketdi-qoldi.*

Harakat tarzi shaklining yetakchi fe'lning -(i)b ravishdosh shakli yordamida ko'makchi fe'l bilan qo'shiluvidan hosil bo'lgan morfologik shakli faol qo'llanuvchi bir ko'rinishidir. Masalan: *ketib qolmoq* ("kutilmaganda"), *berib turmoq* ("vaqtincha"), *kutib turmoq* ("davomli harakat") kabi. Birikuvlardagi ikkinchi fe'llar ko'makchi fe'l sanalib, ular ushbu qo'llanishlarda lug'aviy



ma’nosini yo‘qotgan bo‘ladi, ya’ni lug‘aviy ma’nosida grammatic ma’no ifodalaydi. Shakllantirilayotgan fe’l yetakchi fe’l bo‘lib, yetakchi va ko‘makchi fe’l birikuvi esa an’anaviy o‘zbek tilshunosligida *ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi* atamasi bilan yuritiladi.

Harakat tarzi shaklining tarkibiy qismi bo‘lgan ko‘makchi fe’llarning grammatic ma’nolari o‘zlarining asl substansiysi – fe’lning mustaqil qo‘llangandagi lug‘aviy ma’nolaridan qay darajada uzoqlashganligi bilan farqlanib turadi. Ba’zi ko‘makchi fe’llarning grammatic ma’nolari lug‘aviy ma’nodan uzoqlashmagan bo‘lsa (*boshla*), boshqalarida uzoqlashishning eng chekka nuqtaga yetgan holatini ko‘rishimiz mumkin.

Harakat tarzi shakli tarkibidagi ko‘makchi fe’l grammatic ma’nosи asos fe’l lug‘aviy ma’nosidan maksimal darajada uzoqlashgan bo‘ladiki, bu bog‘lovchi vositalarga mutlaqo bog‘liq bo‘lmaydi. Aksincha, ko‘makchi fe’l o‘z lug‘aviy asosidan semantik jihatdan maksimal darajada uzoqlashganligi sababli ma’lum bog‘lovchi vosita orqali yetakchi fe’lga bog‘lanishga xoslanib qoladi. Buni tilshunoslар faqat bir grammatic vosita (ravishdosh shakli) bilan ko‘makchi fe’lga bog‘lanuvchi ko‘makchi fe’llar deb atashlarini ham ko‘ramiz. Masalan, quyidagi ko‘makchi fe’llar birgina morfologik shakl bilan yetakchi fe’lga birika oladi va bu ko‘makchi fe’llar o‘z lug‘aviy asoslaridan maksimal darajada uzoqlashganligi uchun ham faqat bir vosita bilan bog‘lanishga “ko‘nikma” hosil yetakchi fe’l bilan qo‘shib yoziladi: *yozaverdi, yiqilayozdi, yozatur, aytaqol* kabi. Shu bois bunday shakllarni fe’lning harakat tarzi, aniqrog‘i, analitik shakllari deb atashga shubha

Ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lning lug‘aviy ma’nosini modifikatsiya qilish, nutqqa xoslash vazifasini bajaradi. Ko‘makchi fe’l yetakchi fe’llarning lug‘aviy ma’nosini o‘zgartirish, modifikatsiya qilish, nutqqa moslash va xoslash vazifasini bajarishi jihatidan lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar kabi funksional qiymatga ega bo‘ladi. Shu sababli yetakchi va ko‘makchi fe’l birikuvidan tashkil topgan, “ajralganlik” xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun analitik fe’l shakli deb yuritiladigan harakat tarzi morfologik ko‘rsatkichlari lug‘aviy shakl yasovchi ham deb nomlanadi. Demak, *analitik shakl* atamasi ularning shakliy strukturasiga, *harakat tarzi* shakli atamasi esa mazmuniy mohiyatiga nisbatan tanlangan. Masalan, “*Men kitobni o‘qib chiqdim*” gapida *chiqdi* fe’li o‘zining substansial mohiyatida mavjud bo‘lgan hamda izohli lug‘atlarda semema sifatida qayd



etiladigan “ichkaridan yo‘l olish natijasida tashqarida bo‘lmoq” lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, muayyan gapdagi *o‘qimoq* yetakchi fe’lining lug‘aviy ma’nosini o‘zgartirish, ya’ni undan anglashilgan harakatning tugallanganligini bo‘rttirish, so‘zlovchining o‘z xatti-harakatiga munosabatini ifodalash vazifalarini bajarmoqda. O‘z tabiatida ham grammatik, ham pragmatik mohiyatlarni mujassamlashtirgan holda nutqqa chiqmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, voqelangan bu pragmatik ma’noda fe’lning o‘z substansial asosidagi lug‘aviy ma’nosni qaysidir yo‘sinda saqlanib qoladi. Umuman olganda, tegishli leksema sememasi grammatik ma’no doirasida “kichraygan”, umumlashgan, mavhumlashgan holda nutq yuzini ko‘radi.

Ma’lumki, “o‘zbek substansial tilshunosligi o‘zbek tilining agglyutinativ tabiat va ontologik shakl yasash xususiyatiga tayangan holda grammatik ko‘rsatkichlarning yangicha tasnifini berdi. Bunga ko‘ra:

- a) lug‘aviy shakl hosil qiluvchi;
- b) sintaktik shakl hosil qiluvchi;
- v) lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi farqlandi.

Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi – so‘z ma’nosini qisman o‘zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo‘shimcha. Masalan, *kitob* so‘zida birlik ma’nosini ham (*Bu kitob qiziqarli*), ko‘plik ma’nosini ham (*Do‘konga kitob keldi*) mujassamlangan. Nutq sharoiti, matn *kitob* so‘zidagi birlik yoki ko‘plikning voqelanishini ajratib beradi. Shu so‘zga -lar shakli qo‘shilishi bilan u *kitob* so‘zida birlik ma’nosini ko‘plik ma’nosidan chegaralaydi, ya’ni lug‘aviy ma’noni muayyanlashtiradi, toraytiradi. Lekin yangi so‘z yasamaydi, so‘zni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qilmaydi. Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi, asosan, to‘rt yirik so‘z turkumi – fe’l (nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, o‘zgalovchi, sintetik va analitik harakat tarzi shakllari), ot (son, kichraytirish-erkalash), sifat (daraja) va sonda (uning ma’no turini hosil qiluvchilar) mavjud bo‘lib, qo‘llanilishi o‘zi mansub so‘z turkumi bilan chegaralanadi. Shu boisdan ular tasniflovchi, ya’ni so‘zlarni tasniflash chog‘ida bir turkumni boshqalaridan ajratuvchi shakl deb yuritiladi [Сайфуллаева, 2:66]. Harakat tarzi shakllari fe’l leksemaning lug‘aviy ma’nosini modifikatsiya qilish bilan birgalikda, ularning birikuvchanlik-biriktiruvchanlik (valentlik) imkoniyatlariga ham ta’sir qiladi.

Til hodisalariga substansial yondashuv tilning boshqa birliklarida bo‘lgani kabi, morfologik shakllarda, xususan, harakat tarzi shakllarida ham valentlik (birikuvchanlik-biriktiruvchanlik)ni ajratishga imkoniyat yaratdi. “Turkiy tilning morfologik shakli asosan affiksatsiya – qo‘shimcha qo‘shish usuli bilan yasaladi va turkiy qo‘shimcha



flektiv tilning morfologik formantidan farqli ravishda yorqin ma’noviy va bu jihatdan leksemaga o‘xshash. Chunonchi, *-lar* ko‘plik son shaklining umumiyligini grammatik ma’nosiga, «bo‘linuvchan noaniq miqdoriy ko‘plik» sifatida belgilanar ekan, o‘z-o‘zidan tushunarlik, *-lar* formantli so‘zshaklani aniq miqdori ifodalovchi aniqlovchi bilan birika olmaydi. Birikkanda esa, albatta, okkazionallik – g‘ayrime yoriylik sodir bo‘ladi. Shuning uchun *yuzta kitob*, o‘ninchisi yil kabi birikmaga aniqlanmish ko‘plik shaklida kela olmaydi. *Yuzta kitoblar* birikmasi o‘zbek tili uchun xos emas, o‘ninchisi yillar esa xususiy okkazional yoki ixtisoslashgan ma’noga ega. Bundan grammatik shakl so‘zning potensial (lisoniy) valentligini o‘zgartirishi - kengaytirishi yoki, aksincha, toraytirishi mumkinligi haqida xulosa chiqara olamiz. Shuning uchun grammatik shakl valentligi va so‘zning potensial (lisoniy) valentligi orasidagi farq grammatik shakl valentligi bilan belgilanadi, degan hukmni ilgari surish mumkin [Абузалова:3:84].

Shu asosda turkiy tillardagi harakat tarzi shakllarining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan asos leksema birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyatlari e’tibor qaratamiz.

Harakat tarzi shakllari fe’ldan anglashilgan ish-harakatning “tarz” semasini muayyanlashtirganligi sababli bu fe’llarning relyativ valentligiga ta’sir qiladi. Boshqacha aytganda, leksemalarning “tarz” semali leksemalar bilan birikish imkoniyatlarini muayyanlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2011.– 426 б.
2. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010 – 158 б.
3. Абузалова М. Субстанциал морфология ва унинг тадқиқ тамойиллари // Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Ташкент: Мумтоз сўз, 2008. – 100 – 101 б.